

IILM ZIYYOSI



Magistraturaga ... TURKTIYAGA

Bugun minglab yoshlar oliy ta'limda tahsil olishmoqda. Bu degani, oliy ma'lumotlilar soni ko'payapti, degani. E'tibor qiling, hamma diplomli bo'lishi mumkin, biroq haqiqiy ilm egasi bo'ladiganlar soni, ya'ni ta'limni davom ettirib, magistratura va undan keyingi ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish yo'lini tanlaganlar diplom olayotganlarnikidan ancha farqli. So'nggi vaqtlarda oliy ta'limni davom ettirish uchun til bilish darajasini belgilovchi sertifikat talab etilmoqda. Bu esa yuzlab yoshlar uchun hatto chet elda o'qishga kirish imkonini ham taqdim etmoqda. Bu mavzuga bejiz to'xtalmadik. Bu safargi gazeta uchun berilgan maxsus intervyu filial talabalari uchun ibrat maktabi vazifasini beradi, degan umiddamiz.



Kengash kun tartibiga ko'ra, 2023 yilda filialda olib borilgan o'quv, ilmiy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi bo'yicha direktor o'rinbosarlarining tahliliy hisobotlari eshitildi. Shuningdek Kengashda o'tgan yil davomida samarali faoliyat yuritgan jamoa va ularning a'zolari e'tirof etildi.

TDTU OFda Kengash yig'ilishi

- ▶ "Reytingga eng ko'p hissa qo'shgan fakultet"
- Metallurgiya va kimyoviy texnologiyalar fakulteti
- ▶ "Reytingga eng ko'p hissa qo'shgan kafedra"
- Kimyoviy texnologiya kafedrası
- ▶ "Reytingga eng ko'p hissa qo'shgan dotsent"
- U.Toshtemirov
- ▶ "Reytingga eng ko'p hissa qo'shgan assistent"
- E.Yuldashev
- ▶ "Reytingga eng ko'p hissa qo'shgan katta o'qituvchi"
- H.Isroilova
- ▶ "Ilmiy loyihalar bo'yicha eng faol kafedra"
- Metallurgiya kafedrası
- ▶ "Ilmiy faoliyatda eng istiqbolli kafedra"
- Mashinasozlik texnologiyasi kafedrası
- ▶ "Xalqaro hamkorlik bo'yicha eng faol kafedra"
- Umumkasbiy va iqtisodiy fanlar kafedrası
- ▶ "Eng yuqori samaradorlikka erishgan bo'lim"
- Sirtqi bo'lim
- ▶ "Eng yaxshi targ'ibotchi olim" - A.Samadov
- ▶ "Eng yaxshi ixtirochi" - D.Rismuxamedov
- ▶ "Eng yaxshi samaradorlikka erishgan xodim"
- R.To'xtayev
- ▶ "Eng faol tyutor" - J.Norboyev



Boshi 1-betda

Ayni damda Turkiyaning Anqara shahridagi Hacettepe Universiteti magistranti samarqandlik Sitara Qarshiyeva bilan suhbatda bo'lib, uning fikrlarini sizga taqdim etmoqdamiz.

* OILALI TALABA UCHUN BAXT NIMADA DEB O'YLAISIZ?

- Oilali talaba uchun baxt – oilada ham, jamiyatda ham atrofda qilarning unga faqat kelin deb qaralmasligida. Jamiyat tarafidan qanday? Turmushga chiqqan qizning erkinligi, qiladigan harakatlari oilasi bilan bog'liq bo'lib qoladi. Ya'ni bu ishni qilsa bo'ladimi, noto'g'ri emasmi, odamlar nima deydi, kabi qarashlarga talaba-qiz moslashadi, to'g'rirog'i uni sekin moslashtirishadi. "Bu ishni qilishim kerak emas, chunki bu noto'g'ri, bor diqqatimni oilamga qaratishim kerak" kabi o'ylar bilan o'z erkinligini oilasi bilan bog'liq qilib qo'yadi. Umuman ayol zoti, ayniqsa talaba birovga bog'liq qilib yaratilmagan. Bilimi borligi uchun u talaba.

Demoqchi bo'lganim, turmushga chiqqan talaba-qizlar uchun ham o'z ustida ishlashi, rivojlanishi, yangi qirralarini ochish uchun imkoniyat yaratib berilsin. Uning qiziqishi, maqsadi va rejalarini tinglaydigan va qo'llab-quvvatlaydigan insonlar davrasida bo'lish, talaba-kelin uchun eng katta baxt. "Turmushga chiqishdan avval magistraturaga kirib, o'qib ol, keyin imkon bo'lmaydi, hech narsaga ulgurmayсан" kabi gaplar menga ham aytilgan. Fikrimcha, turmushga chiqadigan insoniga ham o'z fikrlarini, maqsadlarini to'ydan avval anglatsa, keyinchalik tushunarsiz vaziyatlar bo'lmaydi. Ya'ni tushunadigan turmush o'rtoqning uchrashi - eng asosiy baxt.

O'zimga xuddi shunday meni qarorlarimni hurmat qiladigan inson uchragan. 2022 yilda Turkiya hukumati dasturi (Turkiye Burslari) bo'yicha dunyo bo'ylab iqtidorli yoshlarga ta'lim granti ajratilgani haqida birinchi bor eshitganman. U vaqtda oilali bo'lmaganim uchun, ota-onam ruxsat berishmagan. Biroq 2023 yilda unashtirilganimdan so'ng turmush o'rtog'imga Turkiye Burslari dasturi haqida, uning imkoniyatlari to'g'risida aytib berganimda, ular hujjat topshirishimga rozi bo'lganlar. Juda xursand bo'lganman. O'z imkoniyatimni sinab ko'rish uchun oldimda bitta eshik ochilgan edi. Turk tili imtihonim Qozog'istonning Turkiston shahrida bo'lgan.

Avvaliga ular men bilan Turkiyaga ketmasalarchi, deb qo'rqdim. Sababi meni u yerda qiladigan ishim ma'lum, o'qiyman. Lekin turmush o'rtog'im O'zbekistondagi yaxshi maoshli ishdan ketishi, atrofimdagi odamlarning gap-so'zlari... Biroq, biz keldik Turkiyaga. Bu yerda oila bo'lib yashash ancha qiyin. Iqtisodiy inqirozlar Turkiyada ham bor va buning ta'siri bizga juda seziladi. Hozir men bor e'tiborimni o'qishga qaratganman, Abdulaziz akam esa Anqaradagi restoranda oshpaz yordamchisi bo'lib ishlaydi.

*TURKIYA HUKUMATI DASTURI (TURKIYE BURSLARI), UNGA HUJJAT VA IMTIHON TOPSHIRISH JARAYONLARI...

Bakalavrda o'qib yurganimda, universitetning xalqaro aloqalar bo'limida ishlaydigan ustozimiz Nodirbek Jo'raqo'ziyev darsida talabalar uchun chet el OTMLarida ajratilayotgan grantlar haqida aytib o'tgan edi. Turkiye Burslari haqida ham o'shanda birinchi marta eshitdim. O'sha kunning o'zidayoq ustozni yonlariga borib, dastur haqida batafsil so'rab olib, grant dasturida qatnashishni xohladim. Biroq ota-onam qarshilik qilishdi.

Men balkim o'zim pul yig'sam, ruxsat berishar, degan hayolda bir somsaxonaga idish yuvuvchilikka ishga kirdim. O'sha vaqtda orzuga erishish yo'lidagi qadamimda har qanday ishni qilishga tayyor edim. Ozroq ishlaganimdan so'ng ota-onam ishlashimni xohlamadilar. Keyinchalik unashtirilib, to'y

kunimizga yaqin grant uchun hujjatlar yig'ishni boshladim. Ota-onam ham bu safar yordam berishdi. Qarshilik qilmaganligi, yo'ldan ham qaytarishmagani men uchun eng katta yordam bo'ldi.

Turkiye Burslariga avval hujjat topshirdim, so'ng suhbatga bordim. Yakunida esa natijasini kutish kerak edi. Men esa yutdim.

*ILK TAASSUOTLAR...

Turkiyaga turmush o'rtog'im mendan avvalroq ketib, ijara uchun joy va ish topib qo'yg'nanlar. Men esa 10 kunlar o'tib yo'lga chiqqanman. Turk tilni bilganim uchun manzilni topib borishga qiynalmaganman. Transferli uchish davomida Istanbul aeroportiga qo'nayotganda, samolyotimiz bir



Magistraturaga... TURKKIYAGA

joyda sal ko'proq aylanib qolgan, shunda oynadan pastga qaraganimda dengiz, orollar, bir vaqtning o'zida, qayerdadir yomg'ir, qayerdadir quyosh chiqib turgani, kemalarda odamlarni suzib yurgani meni boshqacha ta'sirlantirgan. Istanbul aeroportidan Anqaraga kelayotganimda oynadan tashqaridagi manzara cho'ldan iborat edi. Dengiz yo'q. Shashim pasayib qolgan. Ammo keyin bildimki, Anqara talabalar uchun juda qulay va juda rivojlangan shahar ekan. Istanbulga nisbatan bu yerda sharoit va narx-navo ular uchun yaxshiroq.

* O'ZBEKISTON VA TURKIYA OLIY TA'LIMI...

- Anqaradagi eng qadimiy universitetlardan biri bo'lgan Hacettepe Universitetining Ijtimoiy bilimlar fakultetida joylashgan binoda o'qiyman. Darslarni TÖMERni o'rganishdan boshladim. Qoldirilgan darslar uchun daftaru referatlar yozmaysiz. Bilim sizga kerak va o'zingiz mustaqil o'rganib o'zlashtirib olishingiz lozim.

Dasturning final imtihonlari Turkiyada o'tkazildi. Bakalavrni semestrday huddi. Biroq bu yerdagi yoshlar boshini kitobdan ko'tarishmaydi. Chunki imtihon natijalari ham o'qishingizga bog'liq. Bizda esa semestr imtihonlarida Hemisga ism-familiyangiz kiritilishi kerak. Agar kiritilmay yiqilsangiz, stipendiya kuyishi va boshqa muammolar bor. O'quvchi bilimi pasayib ketishiga tizim sababchi bo'lib qolganidek O'zbekistonda.

* NIMA UCHUN AYNAN TURKIYADAGI MAGISTRATURANI TANLADINGIZ?

- Aynan Turkiyadagi magistraturani tanlashimga turk tilidagi sertifikatim borligi sabab bo'lgan. 4-kursni tugatayotgan vaqtimizda magistraturada o'qish uchun til bilish sertifikati talab qilinadigan bo'ldi. O'zi umuman turk tiliga qiziqishim kuchli, boshqa tillarga nisbatan

o'rganish osonroq bo'lgani uchun turk tilini tanlaganman. Biroq O'zbekistondagi magistratura imtihoni boshlangan vaqtga qadar men sertifikat ololmaganman. Yanvar oyida Qozog'istondagi Yunus Emre universitetida bo'lgan imtihonda xalqaro sertifikatga ega bo'lgach, Turkiye Burslari grand dasturi asosida Turkiyadagi magistraturaga topshirishga qaror qildim.

Turkiya hukumati dasturi (Turkiye Burslari) bo'yicha dunyo bo'ylab iqtidorli yoshlarga ta'lim granti ajratayotgan mazkur dastur doirasida o'zbekistonlik iqtidorli yoshlar ham nufuzli universitetlarning bakalavriat, magistratura va doktorantura bosqichida to'liq bepul tahsil olish imkoniga ega bo'lishi mumkin.

Grant g'oliblari, shuningdek, turar-joy, oylik stipendiya, tibbiy sug'urta, bir martalik aviachipta bilan ta'minlanadi. Mana shu imkoniyat ortida dunyo ko'rish va xorijiy davlatlar ta'limini o'rganish imkoniyatini qo'lga kiritdim.

* 2023 YIL OKTYABR... (O'SHA OYDAN BOSHLAB HAYOTINGIZDA NIMALAR O'ZGARDI?)

- Bu oydan boshlab hayotimda oldingidan ko'proq mustaqil bo'la boshladim. O'z muammolarimni o'zim hal qilishni o'rgandim. Tortinchoqligimni yengdim. Fikrimni birovlariga bildirishni o'rgandim. Tug'ilgan joyimni yana ham ko'proq yaxshi ko'rishimni, qadriyatlarimga nisbatan hurmat va Vatan qadriga yetish kabi hislar biz uchun qanchalik muhim ekanligini angladim. Sog'inch, qadr tushunchasini orttirayapti. Va men bu yerga kelib, oldimga yana bir ulkan maqsadni qo'ydim. Ya'ni nemis tilini o'rganib, doktoranturani Germaniyada o'qib, u yerda ham yashab ko'rish. Nima uchun Germaniya? Ilm-fan va iqtisodiy jihatdan oldingi o'rinlarda ekanligi va talabalarga qulayliklari borligi uchun menda qiziqish ortdi. Yevropa bo'ylab sayohatga imkon qilib bera oladigan davlat bo'lgani uchun shu davlatni tanladim.



Ozbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-avgustdagi qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida Yoshlar akademiyasi tashkil etilgan. Akademiya va unga a'zolik haqida batafsil quyida berilgan ma'lumotlardan bilib oling.

o'tadigan bo'lsam, vazirlik tomonidan har bir oliy ta'lim muassasalariga xat yuborildi va innovatorlik qobiliyatiga ega iqtidorli yoshlar tanlab olindi. Barchasi shaffof, ochiq shaklda bo'ldi. Yuborilgan arizalarning ichidan munosiblari vazirlikka yuborildi.

YOSHLAR AKADEMIYASINING BIRINCHI ASSAMBLEYASI

Yoshlar akademiyasining birinchi assambleyasi "Innoweek-2023" Innovatsion haftalik doirasida bo'lib o'tdi. U yerda juda ko'p iqtidorli yoshlar bor edi. Barchasining yutuqlari mavjud, kimlardir innovatsiya

YOSHLAR AKADEMIYASI KARVONIGA QO'SHILING!

YOSHLAR AKADEMIYASI QANDAY PLATRFORMA?

Ilmiy innovatsion sohada faoliyat yuritayotgan iqtidorli yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, mamlakat ilm-fanining xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini ta'minlash, mavjud ilmiy maktablar salohiyatini yanada mustahkamlash hamda ularning innovatsion salohiyatini rivojlantirish maqsadida yuridik shaxs maqomisiz tashkil etilgan platforma hisoblanadi

KIMLAR A'ZO BO'LISHI MUMKIN?

Yoshlar akademiyasiga o'zlarining innovatsion loyihalari va g'oyalari ega iqtidorli yoshlar va talabalar, 40 yoshgacha bo'lgan olimlar va tadbirkorlar yakka tartibda yoki jamoa shaklida tanlov asosida qabul qilinadi.

PLATFORMA JAMOALARI

"G'oyalar generatorlari" — Yoshlar akademiyasining asosiy yo'nalishlariga tegishli bo'lgan ma'lum bir muammoning yechimiga qaratilgan innovatsion g'oyaga ega jamoalar platformasi;

"Startaplar" — o'z g'oyasi va ushbu g'oyani amalga oshirishga qaratilgan startap loyihalari va ularni amalga oshirish bo'yicha aniq rejaga ega jamoalar platformasi;

"Biznes vakillari" — faoliyatida ilm-fan va innovatsiya yutuqlarini qo'llagan va



tegishli sohada kamida 1 yillik tajribaga ega bo'lgan jamoalar platformasi;
"Bo'lajak akademiklar" — yuqoridagi platformalarda faol ishtirok etgan, mamlakatning ilm-fan rivojlanishiga katta hissa qo'shayotgan yuqori ilmiy salohiyatga ega olimlar platformasi.

TADBIR VA TANLOVLARDA QANCHA YOSHLAR FAOL BO'LMOQDA?

Yoshlar akademiyasi tomonidan 2019-2023-yillarda 145 dan ortiq tadbirlar va tanlovlar tashkil etilgan bo'lib, ularning doirasida 100 000 ga yaqin yoshlar qamrab olindi hamda 1 000 dan ortiq yoshlar jami qiymati 35 mlrd so'mdan ortiq miqdorida pul

mablag'lari bilan moliyalashtirilgan.

2023-yil 20-iyulga qadar Yoshlar akademiyasining "G'oyalar generatori", "Startaplar", "Biznes vakillar" hamda "Bo'lajak akademiklar" platformalari bo'yicha 40 yoshgacha bo'lgan jami 4121 nafar iqtidorli yoshlar va yosh olimlar Yoshlar akademiyasi a'zoligiga qabul qilingan.

Yoshlar akademiyasi bir karvonga o'xshaydi, u barcha yoshlarni birgalikda ishlashga, ixtirolar qilishga va vatanimizni rivojlantirish uchun harakat qilishga undaydi.

SARALANGANLAR ORASIDAMAN

Men ham shu karvonga qo'shildim. Akademiyaga azolik jarayoni haqida aytib

bo'yicha yana kimlardir ilm-fan yo'nalishlari bo'yicha bir necha davlat mukofotlarini yutishgan. Fikrlashlari ham o'zgacha bo'lgan iqtidorli yoshlar to'plangan. Haftalikning birinchi kuni akademiyaning rahbari Akbarxon Sobirxonov bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Tadbir bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi. Innoweek-2023da deyarli barcha tadbirlarda ishtirok etdik va juda ko'p taassurotlarga ega bo'ldik. Oxirgi kuni esa fan, ta'lim va innovatsiya vazirligining sobiq vaziri Ibrohim Abdurahmonov bilan uchrashdik hamda ular bizga o'zlarining ishonchlarini bildirib o'tdilar.

Yoshlar akademiyasi bu ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirishga turtki beradigan va mamlakatimiz yoshlarini bir joyga jamlay oladigan akademiyadir.

IMKONIYAT

Akademiya menga Respublikamizdagi o'zimga o'xshash yoshlar bilan doimiy aloqada bo'lish imkoniyatini va bu orqali esa, ko'plab loyihalarda qatnashish hamda grandlar yutish, so'ngida esa chet davlatlarda huddi o'zim qatori yoshlar bilan uchrashish imkoniyatini yaratishiga ishonaman.

Akademiyaga barcha yoshlarni a'zolikka chorlab qolaman - bu ularga bilim, yorqin kelajak va eng muhimi, vatanimizga foydasi tegadigan inson bo'lishda yordam beradi.

Behzod ABDURAFIQOV,
TDTU Olmaliq filiali magistranti,
Yoshlar akademiyasi lideri.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan talaba-yoshlar o'rtasida atqili adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng targ'ib qilish, ularning adabiyotga qiziqishlarini yanada oshirish, o'z iqtidorlarini namoyish etishga imkoniyat yaratish maqsadida "Ma'rifat maydoni" respublika tanlovi o'tkazilib kelinadi. Ayni kunlarda oliygohlarda ushbu tanlovning hududiy bosqichiga tayyorgarlik jarayonlari boshlangan. Xususan, TDTU Olmaliq filiali talabalari ham bu tanlovda 3 yildan buyon ishtirok etib kelishmoqda. Tayyorgarlik jarayonlari haqida emas, aksincha tanlov haqida umumiy xulosalarini bilish maqsadida TDTU OF Energetika va mashinasozlik fakulteti 9-21 TMJ guruh talabasi Asadbek Abdazimning fikrlari bilan o'rtoqlashamiz.

«Ma'rifat maydoni» TALABAGA NIMA BERADI?

TEXNIKA YO'NALISHIDAGI TALABALAR UCHUN "MA'RIFAT MAYDONI" KERAKMI?

Qaysi yo'nalish bo'lishidan qat'iy nazar, ma'rifat maydoni juda muhim! Sababi ma'rifat bu - chiroq! Chiroqlar maydoniga bormaslik esa, bu tayyor imkoniyatdan voz kechish bilan teng! Biz bu bellashuvga borib, o'zimizga motivatsiya olib kelamiz (asosan tayyorgarlik jarayonida). Tanlovdan keyingi muhokamalar, kimning qaysi joyda, qanday xato qilgani, aslida reja bo'yicha qanday bo'lishi kerakligi, o'zaro nisbatlanadi. Bu esa har qanday yosh uchun yaxshigina maktab vazifasini bajaradi deb o'ylayman.

TANLOV TALABAGA NIMA BERADI?

Bu tanlov talabaga eng avvalo, ichki qo'rquvni yengishga yordam beradi. Tanlov emas, ungacha bo'lgan jarayon, tayyorgarlik shaxsan men uchun eng esda qolarli va muhimdir. Bir-birini tanimaydigan, deyarli ko'rmagan talabalar mana shu bellashuv uchun birlashadilar. Tayyorgarlikdagi g'oyalar va fikrlar qozonida qaynash, o'zaro mukammal g'oyani tanlash yo'lidagi bahslar va o'sha yerda o'z

fikringizni himoya qilish, juda zavqli.

Tanlovlar asosan imtihon jarayonlarida, ya'ni sessiya vaqtida o'tkazilishi jamoa azolarining vaqti shundoq ham tig'iz vaziyatda tayyorgarlik ko'rishga vaqt ajratishlari, yuqori bahoga arziydigan yoqimli vaziyat.

USHBU TANLOV SIZGA NIMALARNI O'RGATDI?

Jamoa bilan ishlash, tinglash, mag'lubiyatni qabul qilish, xatolarni eng avvalo, o'zimdanda qidirishni. Shoshish emas, shunchaki tez harakat qilish (o'ylash, fikrlarni jamlash, ularni jamoaga tushuntirish, tog'ri qaror qabul qilish) ni. Kerakli vaziyatda mas'uliyatni yelkaga olish va ushbu yukni to'laqonli anglashni.

SHARTLAR HAQIDA FIKRLARINGIZ

Tanlov shartlari yomon emas! Lekin fikrimcha, mukammallashtirish kerak. Yildan yilga nafaqat bizning balki barcha jamoalar yuksalib,

shakllanib bormoqda. Demak tanlov shartlari ham mos ravishda takomillashib borгани maqul. Albatta asosi va o'zagi aslicha qolgan holatda. Aynan bir adibni uyga vazifa sifatida berishni joriy etish lozim. Ana oshanda tanlovga rang baranglik kiradi hamda birhillikdan voz kechiladi.

ILK MARTDA ISHTIROKINGIZDAGI TAASSUOTLARINGIZ

Ilk ishtirok taassurotlari o'zgacha! Ilk ishtirokimda barmoqlardan sochlarim uchigacha, hatto tilimdan chiqayotgan har bir harflarim qaltiragan.

Hozir esa bu qaltiroq emasligini, balkim sahnani larzaga keltiradigan darajaga ega kuch ekanligini, men ham, jamoam ham chuqur anglagan!



Hayolda kechgan o'ylar

"SHON-SHARAF"DAGI O'YLAR YOXUD URUSH XOTIRALARI

2024-yilning ilk oyidan TDTU Olmaliq filialining bir guruh professor-o'qituvchilari uchun Ikkinchi jahon urushida erishilgan G'alabani 75 yilligiga bag'ishlab 2020-yilda ochilgan G'alaba bog'i va Shon-sharaf muzeyiga sayohat uyushtirildi. Sayohat professor-o'qituvchilarda qanday taassurotlar uyg'otganini bir professorning o'ylari misolida ham anglash mumkin.

G'alaba bog'iga qadam qo'ygan professorning urush davri eksponatlari hamda bog'dagi radiouzellardan taralib turgan ovozlari e'tiborini tortdi, ko'nglida qandaydir xiralik paydo bo'lgandek, his qildi o'zini. Okop ko'rinishidagi yo'laklar oralab yurar ekan, yuragini allanechuk tuyg'ular qamrab olyotgandek bo'ldi. Aslida ko'zlar tomosha qilish, eksponatlarni suratga olish bilan band, biroq hayolida 83 yil muqaddam butun dunyo ahliga, misli ko'rilmagan falokat olib kelgan 2-jahon urushi voqealari jonlanar, ota-bobolaridan eshitganlari, kitoblardan o'qigan urush dahshatlari xotirasini band qilgandi.

Urush yillari harbiy texnikasi, jang sahnalari, konslager ko'rinishi, temiryo'l vokzali va boshqa ko'plab eksponat va kompozitsiyalar, ayniqsa, bog' markazida tashkil etilgan "Shon-sharaf" muzeyidagi zamonaviy

texnologiyalar yordamida keng yoritilgan front sahnalari, front ortidagi qahramonona mehnat, urush qochqinlarini qabul qilish, qahramonlar xotirasini abadiy saqlash va boshqa mavzular asnosida yaratilgan ko'rgazmalar 1941-1945 yillar haqidagi barcha voqealarni so'zlab berayotgandek, uni tomosha qilgan har ko'z egasi esa, o'sha davr voqealari haqida yetarlicha bilim va ma'lumotga ega bo'la olardi.

Muzeydagi har bir ko'rgazma professorning urush o'chog'ida bo'lgan yaqinlari, otasi, amakilarining urush bo'lgan yerdan minglab km uzoqlikdagi makonda yashagan aholiga urush qanchalik ta'sir qilgani, minglab oilalar o'z oila boshidan, o'g'illaridan ayrilgani, o'zbek ayollari front uchun dalalarda kechani kecha, kunduzni kunduz demay mehnat qilganliklari hamda jangdagi qonli to'qnashuvlar to'g'risida aytib bergan gaplari bir necha yil avvalgi xotiralarini yana uyg'otdi. O'sha davrlar ko'z oldida gavdalanar ekan, bugungi tinchlik kunlarga bo'lgan shukronasi ming karra ortganini, yaqinlari, farzandlari atrofida sog'-salomat ekanligidan mamnun bo'ldi.

Bir so'z bilan aytganda, g'alaba bog'i va muzeyga tashrif buyurgan kishi albatta, urush dahshatlarini, onalar qayg'usini, g'alaba quvonchini va abadiy minnatdorlik his-tuyg'ularini his qiladi.

"BUTUN OLAM — TEATR, UNDA HAR BIR ODAM — AKTYORDIR"

Shakespearening gaplari ulg'ayganimiz sari o'z isbotini topib bormoqda. Bu hayotda yashar ekanmiz, hayotimiz davomida singil, opa, farzand, kelin, ona, rafiqqa, buvi kabi rollarni ijro etamiz. Nafaqat jamiyatda, hatto davlat idoralarida, ish jarayonida ham ba'zan bir necha rollarni ijro etishimizga to'g'ri keladi. Lekin rollarimiz borasida biz o'zimizga baho bera olmaymiz. Ba'zan ular noto'g'ri o'ynalgani bois, kuchli stress va charchoq bilan yashaymiz. Dam olish, o'zimizga qonli vaqt ajratish kabi vazifalardan ancha yiroqlashganmiz.

Ishxonadan teatrga olib borishsa, deyarli juda ko'pchilik buni rad etishadi. Bilishmaydiki, hayot ko'zgusi bo'lgan teatr, undagi tarbiyaga yo'g'rilgan saboqlar, kishilarni oldamiylikka chorlashi, ma'naviy ozuqa ulashishi, tafakkurimiz teranlashishida o'rni beqiyosligini.



Yanvar oyida TDTU Olmaliq filial jamoasi O'zbek milliy akademik drama teatrida namoyish etilgan «O'jarlar» spektakli tomoshasiga borishdi. Komediya janrida sahnalashtirilgan spektaklda xalqimizning taniqli aktyor va aktrisalarning mohirona chiqishlari filial xodimlariga kayfiyat ulashdi.

Tomoshabin ko'z o'ngida jonli hayot tasvirlari - sahnadagi har bir aktyorning emosiyasi, hissiyotlari, rollari orqali ijro mahoratlarini his qilish, kulsalar kulib, kerak joyda ular bilan birga yig'lab, butun vujudlari bilan aktyor olamiga kirib borishi, bularning hammasi juda maroqli. Sahnadagi jonli ijro ta'siri tomoshabinni teatr san'atining

haqiqiy olamiga olib kirib, bu dunyoning tashvishlaridan dam oldirish bilan birga, ruhiy quvvat, madaniy xordiq baxsh etdi.

Xullas, O'zbek teatr asoschilaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy ta'bir bilan aytganda, "Teatr ibratxonadir".

YIGIT KISHIGA HARBIY XIZMAT KERAKMI?

So'zlarimni yaqinda berilgan savolga javob qaytarishdan boshlasam.

Savol: Sizningcha oylik harbiy xizmat yaxshimi yoki yillik xizmat?

Oylik armiya bilan yillik armiyaning nima farqi bor? Oylik xizmatda vaqtdan yutish imkoni bor. Masalan, askar oylik xizmatga borar ekan, hatto bir oy to'liq xizmat ham qila olmay qaytadi, agar buni xizmat deya atash mumkin bo'lsa... Fikrimcha, oylik armiyada ham jismoniy mashqlar, harbiy san'atga oid bilim va ko'nikmalar, vatanparvarlik ruhidagi darslar bo'lishi kerak. Bu vazifalar bilan bir qatorda oylik harbiy xizmatda birkirilgan hudud ozodaligi, yuklatilgan vazifaning bajarilganligi hamda jamoat ishlari ham birinchi o'rinda ekan. Uyida "erkatoy" bo'lib o'sgan, og'ir mehnatga qo'l urmagan, o'zini mustaqil eplay olmaydiganlar uchun bir oylik muddat ham juda uzoqlik qilar, balki? O'zingiz bir o'ylab ko'ring, oylik xizmatga kelib, har kuniga yangi paypoq kiyib, eskisini chiqindiga tashlash kimning ishi?!

To'g'ri, muddatning qisqartirilgani ham ko'pchilik uchun yaxshi. Yaqinlaridan kimdir betob, ota-onasiga ta'minotchi, katta oila boquvchisi bo'lgan va shunga o'xshash holat egalari uchun bu islohot ayni muddao. Lekin uyidan uzoqda yashab ko'rmaganlar uchun bu bamisoli qamoqxona...

O'zingizga ayonki, nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyoda harbiylarga e'tibor kuchli, ayniqsa, ularning oziq-ovqat ta'minotida. Dasturxonidagi mevadan tortib, saryog'i-yu ovqatigacha barchasi tayyor va taxt. Erkak kishi bo'la turib, ovqat tanlashning oliy darajasiga oylik xizmatda guvoh bo'ldim. Bir nafar harbiyning kunlik ta'minoti O'zbekistondagi o'rtacha yashash sharoitidagi oilaning bir nafar a'zosi tanovvul qiladigan mahsulotdan deyarli, 2 barobar yaxshiroq. Unda bu nima, to'qlikka sho'xlikmi?

Yillik xizmat aslida, bu ham oson emas, o'zgacha tartib va tizim degani. Har kunlik qat'iy intizom, o'zgartmas qoidalar, o'zaro munosabat, umuman olganda hayot o'zgacha. Ho'p mayli, yillik armiya nima uchun kerak, nega aynan bu burch hisoblanib, hatto bosh qomusda modda ko'rinishida joy



olgan? Inson har qanday sharoit va holatda Vatanini, xalqini, millatini sevishi, uni ardoqlashi lozim. Muddatning uzoqligi va harbiy qismning uydan olisdaligi erkakni erkak qilib, uni kuchli matonat egasi qilib tarbiyalaydi. Inson yuksalishi uchun avval qiynalishi kerak. Axir qilichni ham toblash uchun avval olovda qizdirishadi-ku! Askar qiynalsin, mehnat qilsin, kerak bo'lsa kaltak yesin-u, tarbiyalansin. Qiyin damlar kuchli odamlarni tarbiyalaydi, deb bejiz aytishmagan.

Shukurki, O'zbekistondek Vatanda urush nimaligini bilmay yashamoqdamiz. O'zbekistonimiz rivojlangan sari inson huquqlari mustahkamlanib boryapti, ularga tegishli qonun va hujjatlar qayta-qayta ko'rib chiqilib, yanada takomillashtirilyapti. Erkak kishi tili bilan emas, nomi bilan erkak sanaladi. Biz mustaqil va demokratik holda boshqariladigan, gender tengligi ta'minlangan zamon va

makonda yashayapmiz, deya jar solib, kimlaridir haddan tashqari erkalatib yubormadikmikan? Erkak o'z o'rnini qo'ymagan, ayol o'z o'rnini bilmagan jamiyatdan taraqqiyotni kutish qanchalar to'g'ri?! Erkak bir tarsakini ko'tara olmasa, ayol hatto eri bilan tengma-teng olishsa, bunday millat "avtobusi"ning "keyingi bekati" tubsiz jarlik-ku!

Tarix - katta muallim, o'tmishdan berar ta'lim

Tarixga bir nazar solsak. Buyuk yurishlar boshchisi, g'alabalar bunyodkori, yarim dunyo hokimi sanalgan Amir Temur bobomiz bunday natijalarga qanday erishdi? Qat'iy intizom o'rnatib, qo'l ostidagilariga harbiy-vatanparvarlik xislatlarini ruhan singdirib, askarni - jangda mohir qilichboz, oilada chinakam boshchi, do'stga nisbatan yaxshi yo'l-dosh, dushmanga nisbatan qonli ko'zlar egasi qilib shakllantirdi. Hozirgi umumiy ahvolimizni ular ko'rib nima deyishgan bo'lardi? Menimcha, so'z deyolmay qotib qolishardi. Mayli, tasavvur qilaylik, inson huquqlari himoyalangan jamiyatda yashayapmiz, ertaga kechki payt oilamiz bilan sayrga chiqqan paytimiz 2 bezori yo'limizni to'ssa ularga konstitutsiyani ko'rsatamizmi, yoki Jinoyat kodeksining tegishli moddalarini ko'rsatamizmi? Ha yaxshi, ko'rsatdik ham deylik, o'qib chiqishga ularni vaqti bo'larmikan?!

Xulosa qilib aytganda, o'zim harbiy emasman, lekin har bir atmosferadan oz bo'lsa-da xabardor inson sifatida men to'liq yillik harbiy xizmatni yoqlayman. Balki, ayrim yigitlarda fikrlarimga nisbatan norozilik paydo bo'lar, ammo vaqti kelib, aslida to'g'ri fikrlar ekanligining guvohi bo'lishadi.

Mardonbek NURALIBEKOV,
Energetika va mashinasozlik fakulteti talabasi.